

MARKAZIY OSIYO INTEGRATSIYASIDA TURKMANISTON

Zufar Bektemirov

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 4-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10594002>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlik va integratsiya masalalarining tarixiy va siyosiy jihatlari tahlil qilingan. SSSR parchalangach, mustaqillikka erishgan mintaqa davlatlari o'rtasidagi integratsiyaga bo'lgan urinishlar, ularning muammo va istiqbollari o'rganilgan. Shuningdek, mintaqaviy integratsiya jarayonlari Turkmaniston misolida ko'rib chiqilib, tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, mintaqaviy integratsiya, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, SSSR, maslahat uchrashuvlari, inflatsiya.

TURKMENISTAN IN CENTRAL ASIAN INTEGRATION

Abstract. This article analyzes the historical and political aspects of regional cooperation and integration between Central Asian countries. After the collapse of the USSR, attempts at integration between the states of the region that gained independence, their problems and prospects are studied. Also, regional integration processes were considered and analyzed on the example of Turkmenistan.

Keywords: Central Asia, regional integration, Uzbekistan, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, USSR, consultative meetings, inflation.

ТУРКМЕНИСТАН В ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКОЙ ИНТЕГРАЦИИ

Аннотация. В данной статье анализируются исторические и политические аспекты регионального сотрудничества и интеграции между странами Центральной Азии. После распада СССР изучаются попытки интеграции между государствами региона, получившими независимость, их проблемы и перспективы. Также были рассмотрены и проанализированы региональные интеграционные процессы на примере Туркменистана.

Ключевые слова: Средняя Азия, региональная интеграция, Узбекистан, Казахстан, Киргизия, Таджикистан, Туркменистан, СССР, консультативные встречи, инфляция.

KIRISH

Darhaqiqat bugungi tezkor rivojlanish zamonida jahonning yirik kuchga ega aktorlari o'z ta'sir doirasini kundan-kunga kengaytirib bormoqda. Bu ta'sirlarning kengayishi asosan yashirin va oshkora tarzda olib borilmoqda, bunday tahdidlar zamonida esa minglab yillar davomida bir hududda, bir hil madaniyatda, bir oila bo'lib yashab kelgan biz turkiy xalqlar birdam bo'lishimiz va bu kabi tahdidlarga yelkama-yelka turib qarshilik ko'rsata olishimiz kerak. Shu o'rinda eslab o'tishimiz kerak bo'lgan muhim bir nuqta bo'lib, bu nuqta xalqlarning adadidir, shu kunlarda tahminan 700 ga yaqin xalqlar bo'lib ularning 195 tasining o'z davlatlari bordir, xususan faqatgina G20 guruhi davlatlarini umumiy boyligi dunyoda bir yilda ishlab chiqariluvchi barcha boylkning 85%ni tashkil qiladi[1].

Bunday sharoitda birdamlik zarurligi yaqqol namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyo davlatlari SSSR tarkibidan chiqqanlaridan keyin juda ko'plab qiyinchiliklarga duch keldilar va o'tgan 30 yil

davomida mintaqa birdamligini yuqori bosqichlarga olib chiqish uchun bu davlatlar rahbarlari o'z-muncha bo'lsada o'z hissalarini qo'shdilar. Bunda asosan Turkmanistonning betaraflik siyosati bir muncha qiyinchilik tug'dirdi va bu hali ham davom etmoqda. Shuning uchun bu mavzuning tahlili mintaqa darajasida muhimdir.

Ushbu maqolada g'arb, rus hamda Markaziy Osiyo olimlarining Turkmanistonning mustaqillikka erishganidan keyingi davrdagi faoliyatiga oid fikrlari va qarashlari aks etgan adabiyotlardan foydalanildi. Maqolaning maqsadi Turkmanistonning neytralitetiga sabab bo'lgan ayrim yondashuvlar tahlilini ochib berishdan iborat. Maqsaddan kelib chiqqan holda, Markaziy Osiyo integratsiyasi qanday bosqichlarni bosib o'tganligini asoslash vazifalar sifatida belgilab olindi. Maqolada tarixiy, tizimli-mantiqiy va kontent tahlil usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA

1991 yil 25-dekabrda qariyb 70 yil 15 respublikani o'z tarkibida kuch bilan ushlab kelgan SSSR davlati tugatilganligi e'lon qilindi. Shu davrdan boshlab mustaqillikka erishgan davlatlar oldida ko'plab to'siqlar paydo bo'la boshladi, bunga asosiy sabab sobiq ittifoq qo'l ostidagi davlatlarda bir biriga qaram bo'lgan iqtisodiyot shakllantirgan edi. Bunday iqtisodiyot tufayli mintaqaning ichki infratuzilmasi dastlabki yillarda giper inflatsiyalarga duch keldi jumladan:

- O'zbekistonda 1992-1994 yillarda yillik inflatsiya 1000% [2]
- Qozog'istonda 1993 yilda 1662% [3]
- Qirg'izistonda 1992 yilda 830% [4]
- Tojikistonda 1993-yilda 2000% [5]
- Turkmanistonda 1993-yilda 3100% [6] bo'ldi.

Yana bir e'tirof etilishi zarur bo'lgan muammo Markaziy Osiyo davlatlari 1991 yilgacha amalda bo'lgan energiya resurslarni taqsimlash mexanizmini saqlab qola olmaganligidir. Bu mintaqadagi asosiy suv resurslari bo'lmish Amudaryo va Sirdaryolar hududidan boshlanganligi tufayli suv resurslariga boy Qirg'iziston va Tojikiston yozda Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekistonni suv bilan ta'minlar edi, qishda esa Qozog'iston, Turkmaniston va O'zbekiston ularga gaz, ko'mir va elektr energiyasini yetqazib berar edi.

Bunday vaziyatda, Markaziy Osiyo mintaqasidagi davlatlar o'zaro yaqinlasha boshladi.

Dastlabki qadam Markaziy Osiyo rahbarlari tomonidan 1991-yilda Ashxoboddagi sammitda tashlandi. Bunda mustaqillikka erishgan davlatlarning kelgusi taraqqiyot yo'nalishi belgilab olinishi kerak edi, lekin sammit kutilganidek muvaffaqiyatli o'tmadi, har bir davlat o'z yo'lidan ketishga qaror qildi. Bundan keyingi 1993-yil Toshkentdagi va 1995-yil Dashog'uzdagi hamda 1998, 1999-yillardagi Ashxobod sammitlarida ham tugal bir yechimga kelinmadi[7].

Xususan, bu davr mobaynida Qozog'iston va O'zbekiston o'zaro iqtisodiy raqobat yo'lidan ketishdi, Tojikiston fuqarolar urushiga o'ralashib qoldi, Qirg'iziston esa o'z davlatida G'arb demokratiyasini qurishga harakat qildi. Turkmanistonga to'xtaladigan bo'lsak, bu davr mobaynida u asosan davlat ichidagi 5 yirik qabilalarni milliy o'zlik bayrog'i ostida birlashtirishga urindi, hamda o'z neytralligini dunyoga tan oldirishga va uni saqlab qolishga harakat qildi.

Turkmanistonning bunday neytrallik yo'lidan ketishligiga chuqurroq to'xtaladigan bo'lsak, 4 ta asosiy sababni ko'rishimiz mumkin. Ilk omil sifatida 1990-yil prezident etib saylangan, 1999-yilda esa butun umrlik prezident maqomini olgan Saparmurod Niyozov shaxsiyatiga e'tibor qaratamiz. U hukumatga kelgach o'ziga Turkmanboshi nomini olib, amalda

o‘zi tomonidan boshqariladigan Mejlis (Turkmaniston Parlamenti) va Halk Maslahaty (Xalq kengashi) rahbari bo‘ldi hamda davlatda avtoritar rejimni o‘rnatdi[8]. Ikkinchi omil Turkmanistonni milliy birlashtirish omilidir. Turkmanlar azaldan qabila bo‘lib yashab kelgan bo‘lib faqat urug‘ doirasidagina nikoh bo‘lganligi hamda shevalar orasidagi farq tufayli yirik 5 ta Turkman qabilalari Teke, Yovmut, Ersari, Salor va Sariq bu hududda shakllangandir. Shuningdek, Saparmurod Niyozov yetimxonada katta bo‘lganligi sababli qabila u uchun ikkinchi darajali masala edi, shunga unda turkiy birlik emas, balki o‘z hududidagi ichki milliy birlik ustuvorlik qilar edi[9]. Afg‘onistondagi beqarorlik va undan kutilishi mumkin bo‘lgan tahdidlar dunyo miqyosida neytral deb tan olinish harakatiga yetaklagan yana bir omildir. So‘nggi va eng asosiy omil energiya resurslari bo‘lib, Turkmaniston dunyoda 6-o‘rindagi eng ko‘p gaz zahirasiga ega davlat bo‘lib 19,5 trillion m³ gazga ega, agar shu maromda ishlatilnadigan bo‘lsa 191 yilga yetadi[19]. Neft bo‘yicha esa 44-o‘rinda bo‘lib 600 million barrel nefti bor. [20]

Neytrallikka ilk harakat 1992-yilning Iyul oyida Yevropada xavfsizlik va hamkorlik konferensiyasida amaliyotga ko‘chdi. 1995-yilda esa Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti va Qo‘shilmaslik harakati Turkmaniston neytralitetini qabul qildi. Shu yilning 12-dekabr kuni esa BMT Bosh Assambleyasining 50/80 raqamli rezolutsiyasida 185 davlatning shafeligida Turkmaniston abadiy neytral deb e‘lon qilindi.[10] Bu kun ya‘ni 12-dekabr kuni hozirgacha Turkmanistonda Mustaqillik bayramidan keyingi o‘rindagi milliy bayrami sifatida nishonlanib kelinmoqda. Neytrallik Turkmaniston konstitutsiyasida ham o‘rin olgan bo‘lib, Turkmaniston o‘zini himoya qilishdan o‘zga holda hech qaysi davlat bilan urushga kirmasligi; harbiy ittifoqlarda qatnashmasligi; ommaviy qirg‘in qurollarini saqlamasligi, ishlab chiqarmasligi, vositachi bo‘lmasligi; qurolli to‘qnashuvga olib kelishi mumkin bo‘lgan siyosiy, diplomatik yoki boshqa harakatlardan tiyilish yoki nizo chiqqan holda kimningdir tarafida bo‘lmasligi; hududini chet el harbiy bazalariga ijaraga berishdan voz kechishi belgilab qo‘yilgan[11].

Turkmanistonning birinchi ma‘muriyati davrida mintaqa davlatlari o‘zaro integratsiya uchun ko‘plab harakatlar qildilar. Jumladan O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston Respublikalari o‘rtasida 1994-yil aprel oyida *yagona iqtisodiy hudud*ni barpo etish to‘g‘risidagi shartnomaning imzolanishi mintaqada o‘zaro hamkorlik va integratsion jarayonlarni rivojlantirish borasida qo‘yilgan dastlabki jiddiy qadamlardan biri edi. Bu shartnomani imzolashdan ko‘zlangan asosiy maqsadlar tovarlar, xizmatlar, kapital va ishchi kuchining mintaqa bo‘ylab erkin harakatini ta‘minlash, kelishilgan soliq, budjet, narx, bojxona va valyuta siyosatini yuritishdan iborat edi [12]. Shu yilning o‘zida ushbu “uchlik” davlatlari *Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo‘stligi* tashkilotiga asos soldilar. Bu tashkilot doirasidagi masalalarni hal etish uchun Davlatlararo Kengash, Bosh vazirlar, tashqi ishlar vazirlari, mudofaa vazirlari kengashi, tashkilotning ishchi organi – Ijroiya qo‘mita kabi institutsional tuzilmalar tashkil etildi. Bundan tashqari a‘zo davlatlarning ulushlari hisobiga Markaziy Osiyo banki tashkil etildi [13].

Keyingi yillarda ham mintaqadagi uch davlat o‘rtasida o‘zaro integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish borasida doimiy ish olib borildi. Buning natijasi o‘laroq 1997-yil 10-yanvarda Markaziy Osiyo Iqtisodiy Hamjamiyati (MOIH) a‘zolari, ya‘ni O‘zbekiston, Qozog‘iston va Qirg‘iziston o‘zaro «Abadiy do‘stlik to‘g‘risida» shartnoma imzoladilar. 1998-yil 17-martda bu uch davlat Sirdaryo havzasining suv-energetika resurslaridan foydalanish to‘g‘risidagi uzoq

muddatli shartnomani imzoladilar, hamda shu yilning 26-martida Tojikiston ham yagona iqtisodiy hudud to'g'risidagi shartnomaning to'laqonli a'zolari safiga kirdi.

Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo'stligi tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari 1999-yilning iyun oyida Bishkekda bojxona ittifoqini tuzish to'g'risidagi fikrlarni ilgari surdilar. Kelasi yilda Dushanbe shahrida "Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo'stligining 2005-yilgacha mo'ljallangan integratsion rivojlanish strategiyasi" ni tasdiqladilar. Ushbu hujjatga ko'ra iqtisodiy hamkorlikka a'zo davlatlar integratsiyalashuvi jarayoni har bir davlatning hayotiy muhim manfaatlaridan kelib chiqadigan obyektiv jarayon ekanligi alohida ta'kidlab o'tildi.

Markaziy Osiyo iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning 2001-yil 28-dekabrda Toshkentda bo'lib o'tgan uchrashuvi chog'ida mintaqaviy integratsiya shakllari va mexanizmlarini takomillashtirish, mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash bo'yicha birgalikdagi harakatlarini muvofiqlashtirish maqsadida Markaziy Osiyo iqtisodiy hamdo'stligini "**Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti**" ga aylantirish to'g'risidagi qaror qabul qilindi. Almati shahrida 2002-yil 28-fevralda bo'lib o'tgan uchrashuvda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va O'zbekiston rahbarlari "Markaziy Osiyo hamkorligi tashkiloti" ni tashkil qilish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar. [15]

Bu uchrashuv davomida tashkilot faoliyatini kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov tomonidan bu tashkilot doirasida qabul qilingan hujjatlarni qayta ko'rib chiqish va ayni paytda amaliyotda nafi bo'lmagan hujjatlarni bekor qilish taklifi ilgari surildi. Bu davrga kelib tashkilot doirasida 243 ta hujjat imzolangan edi. Biroq, 2004-yilda Rossiya Federatsiyasi ham tashkilotga qo'shildi, uning harakatlari ittifoqni tugatilishiga olib keldi va uni nomini Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyatiga o'zgartirdi. 2008-yilda O'zbekiston Yevroosiyo Iqtisodiy Hamjamiyati a'zolari safidan chiqishi bilan mintaqaviy integratsiya deyarli to'xtab qoldi[16].

NATIJALAR

Turkmaniston esa integratsion jarayonlarga umuman qo'shilmadi, bunga yaqqol misol 1998-yilgi Turkmanistonni mintaqa integratsiyasiga qo'shilish uchun chaqirilgan taklifga, neytralitet sababli qo'shilmasligini o'z OAVida e'lon qilish orqali rad javobini berdi. Shu jihatdan bu davlatlar o'rtasida hududiy, milliy-etnik, gidroresurslar, tabiiy resurslar, migratsiya, kontrabanda sohasidagi mushkulotlar Saparmurod Niyozov davrida o'z yechimini topmadi.

So'nggi yillar mobaynida muzlab qolgan aloqalar yana jonlana boshladi. Bu borada mintaqada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbuskor bo'lib kelmoqda. 2017-yilda O'zbekiston rahbari tomonidan ilgari surilgan Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini tashkil qilish taklifi ham siyosiy tomonlama mintaqaviy integratsiyani kuchaytirishga imkon bermoqda. Markaziy Osiyo davlat rahbarlarining birinchi maslahat uchrashuvi 2018-yil 15-mart kuni bo'lib o'tdi. Birinchi uchrashuv davomida Markaziy Osiyo nafaqat geografik, geosiyosiy va balki qadriyatlarini mushtarak yagona madaniy makon ekanligi ta'kidlandi. Birinchi uchrashuv davomida erishilgan yutuqlardan biri, O'zbekiston, Qozog'iston va Turkmaniston davlat chegaralarining tutashgan nuqtasi hududida shartnoma imzolandi. O'zbekiston va Qirg'iziston o'z chegaralarining 85 foizi yuzasidan kelishuvga erishdi[14]. Ikkinchi maslahat uchrashuvi 2019-yil 29-noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tdi.

Ushbu uchrashuvda iqlim o'zgarishi ta'sirlari, qayta tiklanuvchi energiya salohiyatini rivojlantirish, mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va suv masalalariga alohida e'tibor berildi.

Shuningdek, Afg'oniston masalasi ham e'tibor markazida bo'ldi.

Uchinchi maslahat uchrashuvi 2021-yil 6-avgustda Turkmanistonda bo'lib o'tdi. Aynan ushbu uchrashuvdan so'ng "XXI asrda Markaziy Osiyoni rivojlantirish uchun Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston respublikalari o'rtasida do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va hamkorlik to'g'risida"gi bitim imzolandi.[17] Biroq, Tojikiston va Turkmaniston bu shartnomani, - "O'z mamlakatlaridagi ichki tartib-qoidalar to'liq tugatilmagan", - deb ta'kidlab, imzolashdan bosh tortishdi. Ekspertlarning qayd etishicha, Tojikiston uchun kelishuvni qabul qilishdan bosh tortish sababi chegaradagi hududiy nizolar bo'lsa, Turkmaniston uchun esa abadiy betaraflik pozitsiyasi asosiy sababdir[18].

2023-yilning 14-sentabrida bo'lib o'tgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining beshinchi maslahat uchrashuvi doirasida Turkmaniston prezidenti Serdar Berdimuhamedov "Taklifim Markaziy Osiyo transport-logistika platformasini ishga tushirish imkoniyatlarini ko'rib chiqishdan iborat bo'lib, uning asosiy maqsadi: mintaqada transport hablarini yaratish, tranzit yo'laklarini shakllantirish va mavjudlari samaradorligini oshirish, hamda optimallashtirish va davlatlarimiz orqali o'tadigan xalqaro transport yo'nalishlari bo'yicha bojxona, migratsiya va boshqa tartiblarni uyg'unlashtirishdir", dedi.[21] Buning natijasi o'laroq Markaziy Osiyo davlatlari tashqi ishlar vazirlari ikkita yangi hujjatni imzoladilar:

- Markaziy Osiyoda quruqlikdagi transport aloqalarini mustahkamlash to'g'risidagi bitim;
- Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi va O'zbekiston Respublikasi o'rtasida yoshlar siyosatining umumiy yo'nalishlari to'g'risidagi bitim[22].

Bundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bu maslahat uchrashuvlari o'zaro tenglikka asoslangan bo'lib, bir davlat boshqasidan ustun ko'rilmaydi, va g'oyani singdirishda hech qanday bosimlar ishlatilmaydi, aynan shu sababli boshqa mintaqaviy integratsiyalardan ko'ra shu uchrashuvlarning istiqboli porloq deya ayta olamiz.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, SSSR parchalanganidan buyon o'tgan davr davomida mustaqillikka endigina erishgan davlatlar ko'plab qiyinchiliklarni yengib o'tishlariga to'g'ri keldi. Rivojlanishning sotsialistik yo'lini tanlagan davlat tarkibidan chiqqandan keyin birdaniga kapitalizmga o'tishga ba'zi davlatlar ko'nika olmadi va bu siyosiy jihatdan amalda sotsialistik tus oldi, xususan Turkmanistonda yakka partiya hukumatni boshqardi va prezidentga cheklanmagan vakolat berdi. Dastlabki Markaziy Osiyo rahbarlari uchrashuvlarida bir qarorga kela olishmagani va birdamlikda harakat qilinmagani uchun har bir davlat o'z yo'lidan ketdi, aynan shu omil mintaqa integratsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Tan olish kerakki dastlabki chorak asr mobaynida hamkorlikka ko'plab harakatlar bo'ldi, lekin amalda ularning manfaati mintaqa mamlakatlari uchun deyarli sezilmadi. Biroq 2018-yildan rahbarlar tarkibida o'zgarish bo'lganligi hamda mintaqa doirasida tashqi aktordan holi holda maslahat uchrashuvlari tashkil etilganligi sababli mintaqa integratsiyasi yangi bosqichga chiqdi deya ayta olamiz.

Maslahat uchrashuvlari orqali erishilgan chegara muammolarini qisman va to'liq bartaraf etilishi, transport va logistikaning yangi tarmoqlari ochilishi, hamda mintaqaga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tahdidlarga birgalikda, kelishib qarshi tura olish kabi amaliy ishlar bu mintaqa integratsiyasining istiqbolidan darak beradi.

REFERENCES

1. Ayesha Jain (September 7, 2023) <https://indianexpress.com/article/india/all-about-g20-member-states-8929001>
2. IMF World Economic Outlook. Database Archived 2014-10-06 at the [Wayback Machine](#), October 2007
3. "Report for Selected Countries and Subjects". www.imf.org. Retrieved 15 September 2018
4. <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.DEFL.KD.ZG?locations=KG>
5. "Report for Selected Countries and Subjects". *Imf.org*. Archived from the original on 2020-07-31. Retrieved 2018-09-08.
6. "Report for Selected Countries and Subjects". Retrieved 2018-08-28
7. Bruce Pannier (14 March 2018). "Why This Central Asian Summit Could Be Different". *Radio Free Europe/Radio Liberty*. Retrieved 5 April 2018.
8. Semih Vaner, "Le Turkmenistan: Pouvoir Personnel et Ressources Energetiques", *Defense Nationale*, Vol. 55, No. 8-9, 1999, pp. 139-141; John Anderson, "Authoritarian Political Development in Central Asia: The Case of Turkmenistan", *Central Asian Survey*, Vol. 14, No. 4, 1995, pp. 509-527.
9. Mehmet Saray, *The Turkmens in the Age of Imperialism: A Study of the Turkmen People and Their Incorporation into the Russian Empire* (Ankara: TTK, 1989).
10. Turkmenistan: Today and Tomorrow, edited by Muhammed H. Abalakov (Ashgabat, 1999), p.15
11. President of Turkmenistan Saparmurat (27.12.1995) <https://www.refworld.org/docid/405ab3d14.html>
12. Qamariddin Usmonov. O'zbekistom tarixi: milliy istiqlol davri. –T.: O'qituvchi, 2007. – B. 276.
13. N.To'xliyev, Q.Haqberdiyev "O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari". –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi asoslari" nashriyoti, 2006. – B. 87.
14. <https://www.uzavtoyul.uz/uz/post/markaziy-osiyo-davlat-rahbarlarining-birinchi-maslahat-uchrashuvi.html>
15. Fazliddin Djamalov (24.11.2022) <https://cabar.asia/en/regional-cooperation-in-central-asia-vision-from-uzbekistan>
16. Gelvanovsky M.I. (2012). Methodological approaches to ensuring the competitiveness of international integration groups in the context of globalization // Eurasian Economic Integration. No. 1 (14).
17. Q.J.To'qayev (20.07.2022) <https://adilet.zan.kz/rus/docs/U2200000963>
18. (21.07.2022) <https://ru.sputnik.kz/20220721/tolko-tri-strany-tsa-iz-pyati-podpisali-dogovor-o-druzhbe-i-dobrososedstve-26258186.html>
19. <https://www.worldometers.info/gas/turkmenistan-natural-gas/>

20. <https://www.worldometers.info/oil/turkmenistan-oil/>
21. (15.09.2023) <https://eurasianet.org/central-asias-leaders-get-into-specifics-on-trade-boosting-initiatives>
22. (15.09.2023) <https://mfa.tj/en/main/view/13362/fifth-consultative-meeting-of-heads-of-state-of-central-asia>
23. Nazirov, M. (2021). Some Aspects of Political Transition in Central Asian States. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(6).
24. Nazirov, M. (2021). Contemporary Trends of Uzbekistan's Regional Policy in Central Asia. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 11, 384-389.